

“O‘ZBEKISTON TURIZMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY TURIZMNING AHAMIYATI”

Isomova Dildora Farxod qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi

dildora.isomova.1993@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonning turizm sohasida ijtimoiy turizmning o‘rni va dolzarbligi, mamlakatimizdagi ijtimoiy turizmning imkoniyatlari, shuningdek uni rivojlantirish ko‘plab ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik faktorlar bilan bog‘liq bo‘lgan chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kam ta‘minlangan qatlamlar, ijtimoiy tenglik, mahalliy aholi, global tendensiyalar, ijtimoiy xizmatlar.

Абстракт: В данной научной статье разработаны роль и актуальность социального туризма в сфере туризма Узбекистана, возможности социального туризма в нашей стране, а также меры, связанные с его развитием с учетом множества социальных, экономических, политических и экологических факторов.

Ключевые слова: малообеспеченные группы, социальное равенство, местное население, мировые тенденции, социальные услуги.

Abstract: In this scientific article, the role and relevance of social tourism in the field of tourism of Uzbekistan, the possibilities of social tourism in our country, as well as measures related to its development with many social, economic, political and environmental factors have been developed.

Key words: disadvantaged groups, social equality, local population, global trends, social services.

KIRISH

Bugun dunyo iqtisodiyotida eng tez rivojlanib borayotgan sohalardan biri bo‘lgan turizm, ko‘plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda. Xizmatlar sohasi, dunyoda daromadligi bo‘yicha yetakchi sohalar ichida uchinchi o‘rinni egallamoqda. Shu bois dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekistonda ham turizm rivojlanib borayotgan sohalardan biri bo‘lmoqda. 2023-yil 21-fevral kuni VII “O‘zbekiston gidlari forumi”ning ochilish marosimida Turizm

qo‘mitasi rasi Umid Shadiyev O‘zbekistonga 2023-yilda xorijdan 7 millionga yaqin turist kelganligini, ularning O‘zbekistonda qolish muddati o‘rtacha to‘rt kungacha uzaygani, bu 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga ko‘payganini ma‘lum qilgan bo‘lsa, bu ko‘satkich 2024 yilning yanvar-may oylarida 2,8 milliondan ortiq chet el fuqarolari turistik maqsadda O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 248,2 ming nafarga yoki 9,6 foizga oshgan. 2024 yilning 5 oyida O‘zbekistonga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining mamlakatlar kesimida soni bo‘yicha Tojikiston yetakchilik qilmoqda – 871,5 ming nafar. Ushbu ko‘rsatkich qolgan davlatlar bo‘yicha quyidagicha ko‘rinishga ega: Qirg‘iziston – 857 ming nafar, Qozog‘iston – 498,2 ming nafar, Rossiya – 289,6 ming nafar¹. Bundan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz ichki va tashqi turizmi sezilarli darajada o‘zgarimoqda. Albatta bunda ijtimoiy turizmning ham ahamiyati katta.

Ijtimoiy turizm – bu davlat tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan mablag‘lar hisobidan sayohat qilish hisoblanadi. Ijtimoiy turizmning maqsadi foyda olish emas, balki daromadi kam bo‘lgan kishilarni dam olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish uchun ularni qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Turizmning mazkur turi chet elda keng tarqalgan. Sobiq ittifoq davrida ham turizmning mazkur turi ommabop hisoblangan, uning ulushiga ichki turizmning qariyb 80%i va xalqaro turizmning 50%i to‘g‘ri kelar edi².

Ijtimoiy va iqtisodiy turizm kambag‘al aholi (yoshlar va maktab o‘quvchilari, nogironlar va nafaqaxo‘rlar) uchun dam olish va sayohat qilish uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan. Ushbu turdagi turizmga subsidiyalar nafaqat davlat tomonidan, balki turli xil fondlar (davlat va nodavlat), shuningdek, turli xayriya tashkilotlari tomonidan ajratilishi mumkin³. Ijtimoiy turizm ko‘plab muassasalar, davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, ular orqali ijtimoiy loyihalar amalga oshiriladi.

O‘zbekistonning ijtimoiy turizm sohasidagi o‘sish sur‘atlari va uning iqtisodiy ahamiyati quyidagicha, o‘sish sur‘atlari:

1. Mahalliy sayohatchilar sonining ortishi: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida 2022 yilda 11,4 millionta ichki sayyohat amalga oshirildi. Bu 2021 yilga qaraganda 1,9 barobar ko‘p⁴. 2023-yilda esa dasturga asosan, hududlarga 21

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/13/tourists/>

² I. STuxliyev, A.A. Eshtayev, B.B. Xolov, N.A. Xakimova. “Turizm va mehmondo‘stlik asoslari”- o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2021. 25-26 betlar.

³ <https://uz.delachieve.com/ijtimoiy-turizm-hamma-uchun-dam-olish/>

⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/07/inner-travel/>

mln mahalliy sayyoh tashrifi tashkil etildi. Bu esa mamlakatning turizm sohasida ijobiy o‘‘sishni ko‘rsatadi.

2. Yangi turistik yo‘nalishlar: O‘zbekiston turizmning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirishga e‘tibor qaratmoqda, masalan, tarixiy, madaniy va ekologik turizm. Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan boshlab turizmning quyidagi yangi turlari (yo‘nalishlari)ga ruxsat berilmoqda, geologiya turizmi; sanoat va ilmiy turizm; harbiy turizm⁵. Bu yangi imkoniyatlar sayyohlarni jalb qiladi.

3. **Infratuzilmaning rivojlanishi:** Yangi mehmonxonalar, transport tizimlari va turistik obyektlar qurilishi turizmni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekistonda mehmonxona infratuzilmasi modernizatsiya qilinmoqda.

Iqtisodiy ahamiyati quyidagicha:

1. **Ish o‘rinlari yaratish:** Turizm sektori yangi ish o‘rinlari va xizmat ko‘rsatish sohasida ishchilarni jalb qiladi, bu esa iqtisodiy o‘‘sishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

2. **Mahalliy iqtisodotni rivojlantirish:** Sayyohlar kelishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar, restoranlar va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalariga talabni oshiradi, bu esa mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta‘sir qiladi.

3. **Mablag‘ tushumlari:** Sayohatchilardan tushadigan mablag‘lar O‘zbekiston iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shadi. Bu, ayniqsa, xizmatlar va mahsulotlar savdosida muhim ahamiyatga ega.

4. **Ijtimoiy rivojlanish:** Turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ijtimoiy rivojlanishga ham xizmat qiladi, masalan, madaniy merosni saqlash va mahalliy madaniyatni rivojlantirish orqali.

Ijtimoiy turizmning global tendensiyalari quyidagicha:

1. Inkluzivlik: Dunyoda ijtimoiy turizmning inkluzivlik tamoyili rivojlanmoqda, bu esa kam ta‘minlangan va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan insonlar uchun sayohat imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan.

2. Sifatli xizmatlar: Ijtimoiy turizm doirasida xizmatlar sifatini oshirishga e‘tibor qaratilmoqda, shu jumladan, mehmonxonalar va boshqa turizm obyektlarining moslashuvchanligi.

3. Mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik: Ijtimoiy turizm ko‘plab davlatlarda mahalliy aholi va hamjamiyatlar bilan yaqin aloqada rivojlanmoqda, bu esa ularning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga yordam beradi.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 martdagi PQ–109-son qarori bilan tasdiqlangan 2024-yilda strategik yo‘nalishlardagi islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasining 68-69-bandlari ijrosini ta‘minlash maqsadida Strategik islohotlar agentligi va Turizm qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ‘‘Turizm sohasida axborot taqdim etish tizimini takomillashtirish hamda yangi imkoniyatlarni yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi qarori loyihasi. <https://asr.gov.uz/news/12198>.

4. Barqarorlik va ekologik mas'uliyat: Ijtimoiy turizmning yana bir muhim tendentsiyasi — ekologik barqarorlik va mas'uliyat. Sayohat qilish orqali ijtimoiy va ekologik masalalarni birgalikda hal qilishga qaratilgan tashabbuslar ko'paymoqda.

5. Texnologiyalar va raqamli innovatsiyalar: Raqamli texnologiyalar orqali ijtimoiy turizmni rivojlantirish uchun yangi platformalar va xizmatlar yaratilmoqda, bu esa ko'proq insonlarni jalb qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy turizmdagi muammolarni hal etish uchun bir nechta kompleks yondashuv va hamkorliklar zarur ekan. Ya'ni **mahalliy jamoalar bilan hamkorlik, iqtisodiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, o'qitish va treninglar, barqaror rivojlanish strategiyalari, marketing va brend yaratish, ma'lumot va resurslar almashinuvi, monitoring va baholash, qonunchilik va siyosatda** ijtimoiy turizmni qo'llab-quvvatlaydigan qonunlar va siyosatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Ushbu yondashuvlar ijtimoiy turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, ijtimoiy turizm global miqyosda ijtimoiy adolatni ta'minlash, hamjamiyatlarni rivojlantirish va sayohat imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim tendentsiya hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 martdagi PQ–109-son qarori bilan tasdiqlangan 2024-yilda strategik yo'nalishlardagi islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasining 68-69-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida Strategik islohotlar agentligi va Turizm qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm sohasida axborot taqdim etish tizimini takomillashtirish hamda yangi imkoniyatlarni yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasi.
2. I.Stuxliyev, A.A.Eshtayev, B.B.Xolov, N.A.Xakimova. "Turizm va mehmondo'stlik asoslari"- o'quv qo'llanma. Toshkent-2021. 25-26 betlar.
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/13/tourists/>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/07/inner-travel/>
5. <https://uz.delachieve.com/ijtimoiy-turizm-hamma-uchun-dam-olish/>